



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Jalilova O'g'iloy Nuriddinovna

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Sport faoliyati va san'at fakulteti San'atshunoslik kafedrasida magistranti*

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI MA'NAVYI- MA'RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METOD VA SHAKL VOSITALARI

Annotatsiya: Mamlakatimizda Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohatlar talabalarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga innovatsion yo'naltirish imkoniyatlari kengaymoqda, Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning nazariy metodologiyalarini tahlil qilish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashning ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayoni uchun axborot metodik ta'minotni ishlab chiqish mavzuning dolzarbligi hisoblanadi.

Annotation: The reforms being carried out in our country to develop the system of higher education, improve the quality of education, the effective organization of scientific and innovative activities are expanding the opportunities for innovative orientation of students to spiritual and educational activities. The relevance of the topic is the analysis of theoretical methodologies of spiritual and educational activities in higher education, the development of information and methodological support for the process of spiritual and educational activities of future music teachers.

Demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishda va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosiy omil hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat barkamol insonni tarbiyalaydi, ta'lim va maorif tizimini takomillashtiradi, milliy



istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarni milliy g'oyalarga sadoqatl bolish, ona-Vatanga cheksiz mehr-muhabbatni qaror toptirish, o'z Vatanining buyuk kelajagini yaratishdagi eng olijanob ishlarda faol qatnashishga undaydi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning maqsadi xalqimizning milliy merosiga vorislik va umumbashariy boyligini ijro eta oladigan, qadrlaydigan axloqli madaniyatli barkamol shaxsni shakllantirishdir. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z talabalarida iymon, e'tiqod, sadoqat kabi odamiylik fazilatlarini shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalashi lozim. Bugungi kunda har bir talaba xalqimizning asrlar davomida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyati, nodir qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini ularning mazmunidagi axloq, odob, insof, iymon, vijdon, diyonat, adolat, insonparvarlik kabi kurtaklar milliy istiqlol mafkurasitufayli yanada rivojlanayotganligini, ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishi lozim. Chunki bugungi talaba milliy istiqlol mafkurasi asosida O'zbekistonning, axloqli, odobli jahon aholisining hurmatiga sazovor bo'lishi lozim. Shunday ekan, uzoq yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni na o'quv jarayonida, na ilmiy tadqiqot ishlarida amalga oshirilmaganligini nazarda tutib, oliy ta'lim talabasida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni egallash va uni hayotga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ehtiyoji sezilmoqda. Zero, u milliy istiqlol g'oyasi asosida barkamol shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham barkamol avlod shaxsida milliy ong, milliy g'urur, o'z-o'zini anglash tuyg'usi, o'z Vatan va xalqi bilan faxrlanish hislari, milliy qadr-qimmat, ma'suliyat, vatanparvarlik va xalqparvarlik-tuyg'usini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga milliy an'analarni, ma'rifat tajribalarini ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish o'qituvchilarni, xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa mustaqil O'zbekistonning istiqboli va istiqlolini mustahkamlash va rivojlantirishda, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvligini ta'minlaydi. Insonning ruhiy poklanishi va yuksalishiga da'vat etadi. Inson ichki olamini boyitadi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosiy vazifalaridan biri – barkamol avlod shaxsni voyaga yetkazish, ularni mustaqil O'zbekistonning haqiqiy fuqarosiga, ongli fidoyisiga aylantirishdir. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.

O'quvchi-yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy ma'rifiy faoliyat metodikasini yaxshi bilish mazkur sohadagi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishning garovidir. Bilim maskanlarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning samarasi, eng avvalo, to'g'ri tuzilgan reja va tadbirlarga bog'liqdir. Taasufki, ayrim ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish jarayonida ular tuzgan rejalarning aksariyatida o'tkaziladigan tadbirlar qadimdan nishonlanib kelinadigan bayramlar, sport musobaqalari, ota-onalar yig'ilishi va qisman suhbatlar o'tkazishdan iboratligining guvohi bo'ldik. Rejalarda ma'rifiy-ma'rifiy faoliyat e'tiborga olingan bo'lsa ham, ma'naviy tarbiya sohasidagi ishlar yetarli hisobga olinmagan.

Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun hamda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga innovatsion texnologiyalar asosida quyidagicha tashkil etilishi lozim:



- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'naviy islohatlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini bo'lajak mutaxassislariga samarali yetkazish;

- oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etib, ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish;

- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va uni shakllantirish mexanizmini, bo'lajak mutaxassislar ma'naviyatini shakllantirishning kompleks dasturini ishlab chiqish;

- yoshlarni milliy g'oya, mafkura, o'z-o'zini anglash, qadriyatlar ruhida shakllantiruvchi milliy tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish;

- ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni dars mashg'ulotlarining davomi sifatida tashkil qilib, uning yo'nalishini o'quv vazifalarini bajarishga bo'ysindirish uzviyligini ta'minlash.

Bugungi kunda pedagoglarning ilg'or ish tajribalarini o'rganishlari innovatsion faoliyat bilan bog'lanmoqda. Darhaqiqat, innovatsiyalar bugungi kunda pedagoglarning o'z ustida ishlash orqali ularning malakasini oshirishdagi eng muhim omilga aylanmoqda. Yosh avlodni har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishishlari va ijtimoiy qiyinchiliklarni mustaqil yecha olishlarida bo'lajak mutaxassislarining o'rni va roli beqiyosdir. Zero, biz ham amalga oshishi shart deb hisoblayotgan ushbu jarayonda bilim, ko'nikma va malakalar, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq talay yangiliklardan xabar topadi, ularni o'z tajribasida qo'llab ko'radi va o'z navbatida bu tajribani boyitadi. Bu jarayon "innovatsion faoliyat"ni ifoda etadi. Ma'lumki, ta'lim olish, shu jumladan, bilimlarni mustaxkamlash o'z ustida ishlash ham me'yorida rivojlanayotgan har bir (sog'lom) inson uchun tabiiy va ijtimoiy ehtiyojdir. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat olib borish ham ana shu zaruriyat tufayli yuzaga keladi.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning olib boradigan faoliyat doirasi keng metodikasi ham o'ziga xos. Shunga ko'ra ham bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustida tinmay ishlashi, metodik adabiyotlarni mutolaa qilib borishi, bunda internetdan olinadigan ma'lumotlardan ham faoydalanishi, o'z kasbdoshlari bilan tajriba almashishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish jarayonida quyidagi tamoyillar asosiy o'rinni egallaydi:

- ta'lim-tarbiya jarayonining oddiydan murakkabga, umumiylikdan xususiylik tomon borishi;

- shaxsiy tajribani tahlil qilish va uning asoida o'rta tashlangan muammoni xal etish maqsadida real dalillarni keltirish;

- shaxsnining ustuvor xususiyatlaridan boshqalarni kamsitish uchun emas, balki jarayon mazmunini boyitishda foydalanish;

- jamoa bilan ishlashda "Men" konsepsiyasidan qochish va undan namuna, etalon, sifat ko'rsatkichi sifatida foydalanishni boshqalardan talab qilmaslik.



Mavjud manbalarni o'rganish asosida bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyati davomida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirish tavsiya etildi:

- ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish doirasida hal etiluvchi muammolarni aniq ko'ra olish, ularning yechimlarini oldindan taxminiy bashoratlash imkoniyatiga ega bo'lish;

- tarbiyaviy jarayonlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda mavzuga tayangan holda yetakchi va xususiy maqsadlarni aniq belgilay olish;

- talabalarni tanlangan strategiya bo'yicha to'g'ri yo'naltirish;

- talabalar uchun kerakli vositalar hamda ma'lumotlar bazasini tavsiya qilish;

- o'rganilgan muammo yechimining amaliy ahamiyatini tashxislash va baholash.

Tavsiya qilingan bosqichlar asosida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga, ijodiy va mustaqil faoliyat yuritishga sabab bo'ladi.

Pedagogik talab milliy qadriyatlarni o'zlashtirish talabaning darsdagi va dasrdan tashqaridagi butun faoliyatini qamrab olishini, bu ishda o'zaro aloqadorlik va izchillik zarurligini o'qtirib o'tadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasida vositalardan foydalanish talabalarning o'quv-biluv, ijtimoiy foydali va mahsuldor mehnat, o'yin va sport-sog'lomlashtirish, badiiy-estetik faoliyatida yo'lga qo'yilishi lozim.

Ma'naviyat-ma'rifat faoliyat jarayonida xalq didaktik g'oyalari va tajribasining tarbiyaviy vazifalarini ro'yobga chiqarish hisobiga talabalarning milliy o'zligini anglashini rivojlantirish, xalq-atvorning milliy andozalarini tarkib toptirish amalga oshiriladi.

O'zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat to'g'ri tashkil etilgan jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilar quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

-**Aqli** – mustaqil fikr yurita oladigan;

-**Odobli** – millatimiz to'plangan barcha fazilatlarga ega;

-**Mehnatsevar** – mehnat kishining ijtimoiy ehtiyojiga aylanganligi;

-**Bilimli** – diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni qo'llay olishi;

-**Sog'lom** – jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomat;

-**Milliy g'ururga ega** – ajdodlarmizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi;

-**Vatanparvar** – Vatan uchun, xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muhofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi;

-**Insonparvar** – inson zotiga faqat yaxshiliklar ulashuvchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi;

- **Jasur va shijoatli** – har bir ishga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga yetkazuvchi. Bu ijtimoiy sifatlar jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilar ularning umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak.



Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan ma'naviy – ma'rifiy faoliyatning talaba-yoshlar tarbiyasidagi o'rni, tizimi va ularning nazariy asoslari professor- o'qituvchilarga tavsiya etilgan va ularning vazifalari ishlab chiqilgan. Ushbu bobda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy xususiyatlari bo'lgan ma'naviy, estetik, ekologik kabi tarbiyalarning tushunchalari, ularning mazmun mohiyati ifodalangan. Jamiyatga yuksak hurmat-e'tibor, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat, kattaga hurmat va kichikka izzat, mehr-muxabbat, sabr-bardoshlik, mehnatsevarlik, halollik kabilar talaba shaxsini axloqiy shakllantirishning asosiy omillari ekanligi e'tirof etilgan va ularning mazmuni ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mirziyoyev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi karak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev SH. M. Niyati ulug' xalqining ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.
3. Karimov I. A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.- 173 b.
4. Abduraimov Sh. S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo integrasiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish: Ped. Fan. Fal. Dok. Diss. Avtoref. – T.: 2017. -45b.
5. N. Kushayev. Estetik tarbiya asoslari T.: O'qituvchi, 1987 yil.
6. Ortiqov N. Ma'naviyat: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Toshkent, “O'zbekiston”, 1997. – 127 b.